Ular o‘rta-sida umumiylik jihatlari bo‘lsa ham, har biri alohida-alohida hodisalar ekanligi bizga ma’lum. Morfologik shakllarning shakldoshligida turli affikslarning shakl munosabati haqida, affiksal ko‘p vazifalilikda esa bir affiksning turli xil vazifa bajarishi haqida gap borsa, affiksal ko‘p ma’nolilikda bir affiksning ma’lum bir vazifada qo‘llanganda, turli xil ma’nolarni ifodalashi xususida fikr yuritiladi. Tilshunos olim Kurilovich o‘z tadqiqotlarida grammatik shaklning bosh ma’nosi birlamchi funksiya, grammatik shaklning hosila hola-tiga esa ikkilamchi funksiya muvofiq kelishini ta’kidlab o‘tgan [11;87-b.]. Buni quyidagi misolda yanada aniqroq ko‘rish mumkin: *-di* o‘tgan zamon shakli, ayni damda, shaxs-sonni ham ifodalaydi (III shaxs birlik-da).

-ma shaklining ko‘p vazifaligi xususida adabiyotlarda quyidagicha fikr keltirilgan: “Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini tasdiq-inkor kategoriyasidan farqlash lozim. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik fe’lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo‘lishsizlik shakli bo‘lgan *-ta* ko‘rsatkichining o‘rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, *-gan* shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko‘p vazifali (polifunksional). U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosidagi “gap kesimini shakllantirish” ma’nosini xususiylashtirganligi bilan bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko‘p funksiyali lisoniy birliklar kabi *-ta* shakli ham birdan ortiq paradigmadan o‘rin olishini ko‘rsatadi” [12;212–213-b.].

Xulosa va takliflar. Demak, morfologik shakllar tizimidagi *-ing* shakli shaxs-son va zamon (o‘rni bilan mayl) shakllarida, *-gan* shakli sifatdosh va zamon shakllarida, *-ish* shakli nisbat va harakat nomi shakl-larida (so‘z yasovchi vazifasida ham), *-man, -san* shakllari shaxs-son va kesimlik shakllarida, *-di* shakli za-mon va shaxs-son shakllarida, *-sa* shakli mayl shakli va bog‘lovchi vositasida, *-cha* kichraytirish shakli (o‘rni bilan piching shakli: askarcha, shoircha, blogercha) va so‘z yasovchi shakl (*o‘zicha*) (o‘rni bilan o‘x-shatish yuklamasi: *moshcha aqli yo‘q*) sifatida, *-lar* shakli (fe’llarda) ko‘plik va hurmat shakllarida, *-ma* shakli bo‘lishsizlik va so‘z takrorini bog‘lash evaziga so‘z yasovchi (*yuzma-yuz, qo‘lma-qo‘l, ko‘chama-ko‘cha* (o‘rni bilan so‘z yasovchilik: *ko‘chma*)) shakllarda, *-v* shakli harakat nomi va so‘z yasovchi (saylov, o‘lchov) shakllarida ko‘p vazifalilikni ko‘rsatadi hamda vazifa jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqara-di.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. Бишкек, 2013.

(2). Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т., “Фан”, 2010.

(3). Ботирова А. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи вазифалари. Т., “Турклад”, 2018.

(4). Исломов И. Ўзбек тили географик терминларида полифункционаллик. “Халқ таълими”, 2021, 6-сон.

(5). Отаханова А. Ҳозирги ўзбек тилида полифункционаллик. Journal of universal science research, 2023, 1-сон.

(6). Бердиалиев А., Эрматов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Тамаддун”, 2022.

(7). Богородицкий В.А. Введение в татарское языкознание. Казань, 1953.

(8). Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М., 1955.

(9). Татаринова А.Н. Опыт системного исследования немецкой химической терминологии: на материале общей и неорганической химии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, М., 2005.

(10). Қодирова Н. Ўзбек тилидаги аффиксларда полифункционаллик. Филол. фан. номз. ... дисс. Автореф., Т., 2002.

(11). Элов Б., Ахмедова Х. Ўзбек тилидаги полифункционал сўзларни семантик фарқловчи бизнес-жараёнларни моделлаштириш. Ўзбекистон: тил ва маданият. Амалий филология масалалари, Т., 2022.

(12). Сайфуллаева Р. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек тили. Т., “Фан ва технологиялар”, 2009.

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni masofadan o‘qitish” kafedrasi dotsenti, DSc)

OLAM PAREMIOLOGIK MANZARASIDA MIFOLOGIK KONSEPTOSFERA BIRLIKLARINING VOQELANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq olam lisoniy milliy manzarasida voqelanuvchi mifologik konseptosfera birliklari sifatida paremiologik birliklarning tarkibidagi komponentlar tahlil qilinadi. Mifologik konseptosfera birliklari tadqiq qilinayotgan tillarning paremiologik fondidan tanlab olingan va batafsil tahlilga tortilgan. Til birliklarining batafsil tahlili izohli lug‘at ta’riflari bilan mifologik ma’nolar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqladi.*

Kalit so'zlar: *mif, mifologik, mifologik konseptosfera, olam mifologik manzara, kognitiv-diskursiv yondashuv, kognitiv tilshunoslik.*

Кдырбаева Гулзира Курабанбаевна (Нукусский государственный педагогический институт, кафедра дистанционного обучения социально-гуманитарных дисциплин, DSc, доцент)

ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЕДИНИЦ МИФОЛОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПТОСФЕР В ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ КАРТИНЕ МИРА

Аннотация. *В данной статье анализируется компоненты паремиологических единиц как единиц мифологической концептосферы в английской и каракалпакской языковой национальной картине мире. Мифологические единицы концептосферы вербализируют различные концепты, которые выявлены на основе детального изучения паремиологического фонда исследуемых языков. Детальный анализ языковых единиц выявил расхождения между дефинициями толкового словаря и мифологогических значений.*

Ключевые слова: *миф, мифология, мифологическая концептосфера, мифологическая картина мира, когнитивно-дискурсивный подход, когнитивная лингвистика.*

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna (Nukus State Pedagogical Institute, Department of Distance Education of Social and Humanities Disciplines, DSc, Associate Professor)

CHARACTERISTICS OF THE REPREZENTATION OF UNITS MYTHOLOGICAL CONCEPTUAL SPHERES IN THE PAREMIOLOGICAL WORLDVIEW

Annotation. *The given article deals with components of paremiological units as mythological conceptual sphere units in English and Karakalpak lingual national worldview. Mythological units verbalize vary concepts which were identified by detailed studying paremiological fond of investigated languages. Detailed analysis of linguistic units identifies differences between definitions of dictionaries and mythological meanings.*

Key words: *myth, mythology, mythological conceptual sphere, mythological worldview, cognitive-discursive approach, cognitive linguistics*

Kirish (Introduction). So'nggi o'n yillikda lingvistik fakt va jarayonlarni chuqurroq o'rganish imkonini beruvchi bir qator tadqiqot metodlari va yondoshuvlari ishlab chiqildi. Ular orasida lingvokulturologik tahlil metodi va kognitiv-diskursiv diskursiv yondashuv muhim o'rin tutadi. Paremiologik birliklarning tarkibiy-semantik tavsifini va mifologik diskursda konseptosfera birliklarning voqelantiruvchilarini o'rganish qiziqarli va samarali tadqiqot hisoblanadi. Jumladan, maqollar tarkibidagi mifologema va arxetiplarning hozirgi kundagi transformatsiyasidagi semalariga qo'shimcha elementlar bilan to'ldirish imkoniyatini paydo qiladi, chunki bu, birinchi navbatda, taqqoslanadigan birliklarning semantikasini, qisman tuzilishi va diskursdagi gavdalanish xususiyatlarini aniqlashtirishga imkon beradi [1;3-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tilshunoslikda paremiologik birliklar strukturasi va semantikasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Maqol va matallarni o'rganish adabiyotshunoslar, madaniyatshunos va tilshunoslar uchun ham har doim dolzarb va qiziqarli mavzularning biri bo'lib kelgan. Naql har bir xalqning prozasida majozga asoslangan alohida janr sifatida mavjud bo'lib, unda hikoya qilingan voqea va hodisalar yo'naltirilgan ob'ekt uchun o'git tarzida bayon etiladi. Xalq tajribasi va bilimlari xalq xazinasi sifatida, paremiyalar shaklida asr-lar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Jumladan, insonning olam manzaralarini idrok qilishi va hayot hodisalariga munosabati o'ziga xos tarzda voqelanadi, gavdalantiruvchilari esa boy va mazmundor hisoblanadi. Har bir parmeiologik birlik muayyan bir xalq tajribasi, hayot tarzi, milliyligi haqida to'liq ma'lumot beradi [6;146-b.]. Bu esa tilga kumulyativ vazifa bajarish xos ekanligini dalillaydi.

G.K.Kdirbayevaning fikricha, "milliy-madaniy belgilar baholovchi axborot orqali voqelanadi" [2; 968-b.]. Madaniy belgilar nafaqat mazmuniy planda, balki lisoniy nuqtayi nazardan ham obrazli ko'rinish olishi mumkin. Paremiyalarning bu xususiyati voqelikni keng miqyosda tasvirlashga yo'l qo'ymasdan, iloji boricha, qisqa va obrazli ifodalashda gavdalanadi.

Maqollar inson ongida katta miqdordagi poetik, ayrim hollarda, mifologik obrazlarni jamlaydi, ulardan inson ongli va ongsiz ravishda, xotirasidagi ma'lumotlar asosida yoki hayot tajribasidan kelib chiqqan holda, umuman, har qanday qulay vaziyatda foydalanadi. 1757–1758-yillarda mashhur qozoq olimi Ch. Valixonov qoraqalpoqlar orasiga kelib, ko'plab folklor namunalarini yozib olgan va xalqning ijodiy qudratini yuqori baholagan edi [8;4-b.]. Chunonchi, qoraqalpoq xalqining 100 jilddan iborat folklori mavjud bo'lib, uning har bir jildidagi materiallar folklor janrlariga ko'ra taqsimlangan. Mazkur ishimizning obyekti paremiologik birliklar ham alohida bir jildda aks topgan. Naql-maqollar jildi tematik guruhlarga tasniflangan bo'lib, har bir guruhda yigirmadan oshiq maqollar to'plangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ishimizda paremiologik birliklar til va madaniyatning voqelantiruvchisi bo‘lib, mifologik konseptosfera birliklarining paremiologik birlik komponentlarida gavdalanish xususiyatlarini tadqiq qilamiz va ularning voqelanish o‘ziga xosliklari ishning asosiy maqsadini mujassamlashtiradi. Maqola uchun tanlab olingan ingliz tilidagi maqollar ingliz tili paremiologik fondi asosida yaratilgan veb-sayt materiallaridan foydalanildi [9], qoraqalpoq tilidagi maqollar «Qoraqalpoq folklori»ning maqol va matallarga bag‘ishlangan I jildidagi paremiologik birliklar qatoridan tanlab olindi. Maqol va matallardagi tayanch komponentlari nazdida, asosan, intellekt va tashqi ko‘rinish mavzuyi guruhlar tahlil qilindi.

Inson intellekti. Maqollarni kognitiv-diskursiv yondashuv nazdida tahlil qilish qoraqalpoq va ingliz xalqining intellekt, aql, donolikka munosabatini aniqlashga yordam beradi. Qoraqalpoq tilida intellekt konseptini voqelantiruchi paremiologik birliklar soni ingliz tilidagi maqollardan birmuncha ko‘p miqdorni tashkil qilinishi aniqlandi. Bu holat qoraqalpoq olam lisoniy va milliy manzarasida “boy inson” sifatida idrok qilinishidan darak beradi: ***ққ.*** *Oqıǵan ozadı, Oqımaǵan tozadı; Asıq oynaǵan azar, Top oynaǵan tozar, Hámmesinen kóp oqıp, Bilim alǵan ozar; Aqıl kópke jetkizer. Óner kókke jetkizer; Sózdiń kórki – maqal. Aqıldan artıq baylıq joq; Aqılsızdıń tili bay, Aqıllınıń qolı bay;* ***инг.****: A great ship asks deep waters; A wise man changes his mind, a fool never will; Brevity is the soul of wit; If things were to be done twice all would be wise; Reason does not come before years; Knowledge in youth is wisdom in age; Have an old head on young shoulders; Who knows most, speaks least; Out of the mouths of babes.*

Jumladan, inson intellektiga oid maqollarda inson aqli boylik bilan uzviy bog‘liqligi qoraqalpoq paremiologik fondi misollarida ko‘p uchraydi, zero, ingliz tilida mazkur holat ko‘zga tashlanmadi. Maqollar tuzilishining eng muhim va doimiy tamoyillaridan biri bu ziddiyatli o‘xshatishdir, ya’ni, aqllilik haqida fikr yuritiladigan bo‘lsa, uning qarama-qarshi xususiyati – ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik haqida ham, albatta, eslatiladi. Tahlilga tortilgan naql-maqollar intellekt konseptini implitsit ma’noda gavdalantiradi, mazkur paremiologik birliklarning tarkibiy qismida mifologik konseptosfera birliklari ishtirok etadi: (ing.) *ship, waters, soul, years, youth, age, an old head, shoulders, mouth, (ққ.) билим, сөз, көк (аспан), өнер, байлық.*

Kema mifologiyada mavhumlikni gavdalantiruvchi identifikator hisoblanadi, kema bilan bog‘liq Tesey kemasi, Kreyser Avrora, Naglfar haqida miflar mavjud bo‘lib ularning hammasida “mavhumlik” voqelangan. Suv qadim zamonlardan odamlar uchun tabiyatning eng g‘ayritabiiy elementlaridan biri bo‘lib kelgan. Suv sehrli manbadan paydo bo‘lgan deb hisoblangan. Suv mifologik konseptosfera birligi sifatida “sehr”, “kuch”, “makr” kabi konseptlarni voqelantiradi. Suv haqidagi yapon mifida Dzingu imperatritsasi Ryudzindan Koreyani bosib olish uchun yordam so‘raydi. Ajdaho xabarchisi unga ikki marvaridni olib keldi: toshqin va suvning qaytishi. Dzingu Yapon flotini Koreyaga olib boradi, dengizda ularga Koreya harbiy kemalari qarshi chiqadi. Dzingu suvga tosh otdi va koreys kemalari quruqlikka chiqib qoladi. Koreyalik jangchilar piyoda hujum qilish uchun kemalaridan sakrab tushayotganlarida, Dzingu dengiz tubiga tosh otdi. Suv orqaga yugurdi va dushmanlarini suv tubiga g‘arq qildi. Mazkur mifni rus tilidagi “Большим кораблям большое плавание” maqoli to‘liq voqelantiradi.

Ta’kidlaganimizdek, qoraqalpoq olam paremiologik manzarasida konsept voqelantiruvchisi “aqil” komponenti ishtirok etkan maqollar soni 83tani tashkil qiladi, jumladan, mazkur konseptning “bilimli”, “dana”, “sanalı”, “yesli”, “baslı”, “parasatlı” kabi boshqa komponentlari ham mavjud, zero, biz aynan “aqil” verbalizatorini tahlil qilamiz: *Ógizdi órge salma, Kanatıń sınar, Ahmaqqa aqıl aytpa, Saǵıń sınar; Aqıllınıń belgisi, Altınnan keler sózleri. Aqılsızdıń belgisin, Aytıp turar kózleri; Basında aqılı joktıń, Eki ayaǵında tınımı jok; Aqılǵa – isharat, Ahmaqqa – kasapat; Qansha ásten jurse de, Tasbaqa joldı óndirer. Aqıl menen aytılgan sóz, Biymazanı kóndirer; Ashıw-dushpan, aqıl-dos, Aqılıńa aqıl qos; Aqıllıda ashıw bolmas; Aqıl-jastan shıǵadı, Xasıl-tastan shıǵadı, Júyrik tay ǵúnannan shıǵadı; Aqıllınıń sózi qısqa, Aytaǵoysa bolar nusqa; Aqılsızdıń tili bay, Aqıllınıń qolı bay; Aqılsız dostan, Aqıllı dushpan artıq.*

Mazkur guruhdagi maqollarda insonning intellektual xususiyatlari ingliz tilida “wise, wit, wisdom, head, knowledge” kabi verbalizatorlar vositasida, qoraqalpoq tilida esa “aqıl”,“bilim”, “dana”, “sana”, “yesli”, “baslı”, “parasatlı” kabi komponentlar jadal gavdalanishi aniqlandi. Ushbu guruhning semantik maydoniga kiruvchi maqollar soni ingliz tilidagi misollarga qaraganda qoraqalpoq tilida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Tahlil qilinayotgan semantik guruh komponentlarida antonimik juftliklar ko‘p keltirilgan: *A* ***wise*** *man changes his mind, a* ***fool*** *never will; Who knows* ***most****, speaks* ***least****; Aqıllınıń belgisi, Altınnan keler sózleri. Aqılsızdıń belgisin, Aytıp turar kózleri; Aqılǵa – isharat, Ahmaqqa – kasapat; Ashıw-dushpan, aqıl-dos, Aqılıńa aqıl qos; Aqıllı jigit el qorǵaydı, Aqmaq jigit eldi xorlaydı; Jaqsı bolsa qatınıń, Kelip turar jaqınıń. Jaman bolsa qatınıń, Basıńnan keter aqılıń.*

Bunda har ikkala tildagi paremiologik zahirada antonimik komponentlar olam mifologik manzarasidagi qarama-qarshilik, oppozitsion hodisalarni voqelantiruvchi mifologik relikt sifatida paremiologik birliklar semantikasida gavdalanganligi aniq. Shu kabi hodisalar ingliz tiliga qiyoslaganda qoraqalpoq tilida ko'p uchrashini alohida ta'kidlashimiz kerak.

Tashqi ko'rinish. Mifologik konseptosfera birliklarining baholovchi strukturasi qator ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi, ular maqollarda «tashqi ko'rinish», «harakat (muomila) tarzi», «xulq-atvor» universal belgilar bilan gavdalansa, ikkinchi tomondan, «insonning shaxsiy xususiyat» (qalb, yurak, ko'ngil, qobiliyat)larin ifodalovchi maqollarni o'z ichiga oladi. Qiyoslanayotgan tillarda odamning tashqi ko'rinishini baholovchi tasnifda yuz, qomat, qadam tashlash, kiyim kabi emotsional ta'sir tushunchalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ustuvorlik qilishi e'tiborni tortadi: ***A black hen*** *lays* ***a white egg****; Don't judge* ***a book*** *by its cover; All are not* ***hunters*** *that blow* ***the horn****; All that glitters is not* ***gold****; Appearances are deceitful; You cannot judge* ***a tree*** *by its bark; You can't tell* ***a book*** *by its cover; Good* ***clothes*** *open all doors; Speak of* ***the devil*** *and he will appear;* ***A monkey*** *in silk is a monkey no less;* ***Clothes*** *do not make the man;* ***A blind man's*** *wife needs no paint; There is many* ***a good cock*** *come out of a tattered bag; What you see is what you get; qq.: Sulıw-sulıw emes, Súygen sulıw; Periniń ózi sulıw, Kurbaqanıń kózi sulıw; Oatan kúnnen sulıw, Altınnan qımbat; Kórkimdi kerseń kóriner, Masayraǵan arıwday, Óziniń pikiri tup-tuwrı óz balası sulıwday; Túsi kelispegenniń, Isi kelispeydi; Qara kisiniń qanı shıqqansha, Sarı kisiniń janı shıǵadı; Jamannıń paydasın aytsań, Túsi ońıp sala beredi; Altın-gúmis abzalın ólgennen soń ne kerek; Altın otta belli, Adam miynette belli; Arpa, biyday as eken, Altın, gúmis tas eken; Altın eriń atqa tiyse, Altının alda otqa sal; Jaman dostan mal tatlı, Altınlı úyden jan-tatlı; Iytin moynıńa altın qarǵı baylasańda, Iyt jumısın isleydi; Altınıń bolsa azbaysań, Sandalıp biykar saspaysań; Aqıllınıń belgisi, Altınnan keler sózleri, Aqılsızdıń belgisin, Aytıp turar kózleri; Aspanda altın aydıń nurı ketpes; Dáneker menen qaynatıp qurıta almas onı mısta, Altın menen alıp bolmas qalǵan kewildi; Sháhárdiń sáni-terek; At ne bolar jaldan soń, Er ne bolar maldan soń; Qubılıp turǵan bayterek, Kuwray bolar desedi; Ósken terektiń tamırın shappa; Shashtıń kirin taraq aladı, Jaqsı atı taraqqa qaladı; Aman bolsa bul basıń, Taǵı shıǵar bul shashıń.*

Tashqi ko'rinish mavzuiy guruhini voqelantiruvchi mifologik konseptosfera birliklari qo'yidagilar*: a black hen, a white egg, a book, hunters, horn, gold, a tree, clothes, a door, devil, a monkey, cloth, a blind, a tattered bag.* Qoraqalpoq olam paremiologik manzarasidagi mifologik konseptosfera birliklari: altin, bayterek *(terek), sulıw* kabi umumiy voqelantiruvchilar aniqlandi, jumladan, *shash, arıw, qara, sarı* kabi lisoniy birliklar ham yaqin sarhad komponentlari hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tashqi ko'rinishni gavdalantiruvchi modifikatorlarning qatoridagi kolorativ leksika ichida "qora" rang ikki madaniyatda ham mifologik xususiyatlarni ifodalagani e'tiborimizni tortdi. Jumladan, qora tovuq haqidagi ertak rus adabiyotida Antoni Pogorelskiy muallifligida yaratilgan bo'lib, mazkur ertakda avtor arxetipik xususiyatlar nazdida diniy-mifologik obraz yaratdi. Zero, Yava orolida mahalliy aholi uchun qora tovuq umuman hayoliy qahramon emas. Ular Indoneziyada, Markaziy Yava orolida yashaydilar. Qora tovuqning vatanida mahalliy aholi xudolarga qurbonlik qilinadi. Bu qush unumdorlik va omadning ramzi hisoblanadi. Qora tovuqning tashqi ko'rinishi xunik bo'lganligi sabab dual komponentlar va ma'nolar bilan ifodalanganligi aniqlanadi.

Hayot darahti ko'plab madaniyatlarda mifologik tasvirdir. Xalq og'zaki ijodida va Bibliyada ta'riflangan jannat o'rtasidagi hayot darahti konseptini voqelantiruvchi motiv hisoblanadi. Din, falsafa va mifologiyada hayot darahtining mifologik konseptosferani gavdalantiradi. Sayyoradagi barcha hayotning o'zaro bog'liqligini bildiradi va evolutsion ma'noda umumiy kelib chiqishi uchun metafora bo'lib xizmat qiladi.

Osmon va yer osti dunyosini bog'lovchi bilim daraxti va hayotning barcha shakllarini bog'lovchi hayot daraxti ikkalasi ham dunyo daraxti yoki kosmik daraxtning shakllari bo'lib, olam diniy va falsafiy manzaralarida bir daraxt sifatida tasvirlangan. Turkiy mifologiyada hayot daraxti turkiy xalqlar san'atida keng tarqalgan motivlardan biridir. Umr daraxti turkiy madaniyatning muhim obyekti bo'lib, turkiy xalqlar mifologiyasida ko'p tilga olinadi.

Jumladan, qadimgi turkiy xalqlarning miflarida "odam" konseptosfera ham mifologik konseptosfera "daraxt" bilan uzviy bog'liq bo'lib, biz ushbu konseptosferaning yaqin sarhadiga kiruvchi "ayol" konseptini voqelantiruvchi "Umay ona" mifonimini tahlil qilamiz. Umay ona Tangri erkakning sevimli yori sifatida ifodalanishi, insoniyotning yaratilishidagi Odam Ota va Momo Havolarning budparastlik dinidagi analoglari hisoblanadi. Umay ona va Tangri erkak mifoantroponimlari Tog'li Oltoy folklorlaridan turkiy xalqlar mifologiyasiga kirib kelgan, jumladan, mazkur obrazlar daraxt lisoni bilan ham gavdalantirilgan, ya'ni, inson zotining jubit daraxti ota Olg'an (Ulgan) va ona Imay (Ímay, ya'ni Umay) deb beriladi. Mifolegemalar

ayrim turkiy xalqlarning miflarida ikki daraxt sifatida ham ta'riflanadi. Aynan shu sabab bo'lsa kerak, Tog'-li Oltoy xalqlarining urug'lari shajarasi simvoli daraxt hisoblanadi. Shu kabi qoraqalpoq xalqida ham hozir-gi kungacha saqlanib kelgan daraxt mifonimi mavjud bo'lib, uning ifodasi yuqorida keltirilgan urug'larning shajarasi sifatida beriladi.

Skandinaviya mifologiyasida hayot daraxti Iggdrasil, jahon daraxti, massiv daraxt (ba'zan Shumtol yoki Tol) kabi sinonimlar bilan ma'lum, ingliz adabiyotdagi ko'plab miflar u bilan bog'liq. Igeparastlik davridan boshlab, muqaddas daraxtlarga sig'inishning reliktlari hali-hanuz ayrim folklor janrlarida va ma-rosimlarda saqlanib qolgan. Masalan, Tor emani, muqaddas Uppsala daraxti va Irminsul yog'och ustuni. Skandinaviya mifologiyasida Idunning savatidagi olma xudolarning o'lmaslik xususiyati bilan ta'minlashi aytilgan.

Oltin qadimgi dunyo odamlari uchun har doim alohida mifologik ma'noga ega bo'lgan. Mif va afso-nalarda oltin eng keng tarqalgan metall, xudolarning doimiy hamrohi sifatida ifodalangan. Ko'pincha, qa-dimgi odamlar oltinni boylik, qudrat va kuch bilan bog'lashgan. Miflarda, odatda, oltindan yasalgan ko'p-lab ramziy buyumlar haqida aytiladi. Olam milliy va lisoniy manzaralarida oltin har doim Quyosh bilan taqqoslanishi xarakterli holat hisoblanadi.

Qadimgi Misr miflariga ko'ra, uzoq vaqt oldin Quyosh yerga yomg'ir tomchilari bo'lib yog'ilgan va oltin sifatida qolib ketgan deb yuritiladi. Qadimgi misrliklar uchun Quyoshning ramzi oltin buzoq bo'lib, uni osmon ma'budasi Nut tongda tug'adi. Tushgacha bu buzoq kattalashadi va buqaga aylanadi –Ra xudosi-ning mujassamlanishi. Kechqurun Nut ma'buda quyosh buqasini yutib yuboradi va ertalab yana oltin buzoq – Quyoshni tug'adi.

Qadimgi inklar oltinni quyosh xudosi Inti bilan bog'lashgan, u, odatda, oltin disk sifatida tasvirlan-gan. Inklar mifologiyasida afsonaviy Manco Kusko shahrin yaratuvchi va o'zini quyosh xudosi Inti bolalari deb ataydi. Skandinaviya mifologiyasida momaqaldiroq va bo'ron xudosi Torning oltin sehrli bolg'asi bo'l-gan deb yuritiladi. U bilan odamlarni dev va yirtqich hayvonlardan himoya qilgan. Uning rafiqasi Siv, unumdorlik ma'budasi, gnomlar tomonidan yasalgan, juda uzun oltin sochlar egasi bo'lgan. Irlandiya folk-lorida afsonaviy mavjudot – leprekonlar tasvirlangan. Bu kichkinagina dumoloq odamlar biroz gnomga o'xshaydi, ammo butunlay yashil rangda kiyinadi. Mifga ko'ra, har bir leprikonda oltin xo'mcha bo'lgan. Qadimgi slavyanlar tinchlik va sukunat ma'budasi – Oltin xotin (Золотая баба)ni bilishardi. G'arbiy Sibirning shimolida, Xanti va Mansi xalqlarida ajoyib va sirli zarhal butga sig'inishadi. Bu odamlar ularga yuzlab yillar oldin Sibirda yashagan va uning o'limidan keyin oltinga aylangan ma'buda yordam berganiga ishonishadi. "Oltin ayol" uchun ov bugungi kungacha davom etmoqda, ba'zilari bebaho afsonaviy yodgor-likni qidirmoqda, boshqalari esa shunchaki oltin.

Masalan qadimgi turkiy xalqlarga birdek yaqin miflardagi mifolegema «Umay ona» obrazi «ona va bolalarning himoyachisi» yoki «Ayol Xudosi/Təңir-əyel» ma'nolarida qo'llanilib kelgan. Umay ona/Ұmay ana mehr-shafqat etaloni sifatida turkiy xalqlarning kognitiv ong bazasini shakllantirgan. Umay ona simvoli uch burchak, Oy, taroq, qaychi va o'q hisoblangan. Uning ranglari oq va kumush rang bo'lgan. Tashqi ko'-rinishiga ko'ra, "Umay" oq-sariqdan kelgan, qung'iroq-tilla rang sochli, chiroyli ayol, jumladan, askarlar va xoqonning xotiniga homiylik qiluvchi ma'buda bo'lgan.

Aynan yuqorida keltirilgan mifologik ma'lumotlarga ko'ra, "tashqi ko'rinish" mavzuiy guruhiga oid misollardagi asosiy komponentlarning tadqiq kilinayotgan har ikkala tilda umumiy xususiyatlari mavjud. Jumladan, mazkur komponentlar ichida shash mifologik konseptosfera birliklari ichida asosiy birlik hisob-lanadi va uning har ikkala tadqiq qilinayotgan madaniyatlarda o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Skandina-viya mifologiyasidagi Tor xudosining rafiqasi Sivning sochi Loki tomonidan olib tashlangandan so'ng gnomlar tomonidan yasalgan juda uzun oltin sochlari bo'lgan. Turkiy xalqlarining mifologiyasida Umay onaning qung'iroq-tilla rang uzun sochi bo'lib, ayollar tug'adigan payt Umay ona uzun sochlarini yoyib ayol va chaqaloqni himoyalaydi. Sochlar sakral diskursda ham ifodalanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mifologik konseptosfera birliklari olam pa-remiologik manzarasi botinan va zohiran gavdalantiruvchi paremiyalar odamning umumiy «paremiologik portreti»ni hosil qiladi va mifologik ong reliktlarini kognitiv-diskursiv yondashuv yordamida idrok qilishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, paremiolik birliklar ifodalaydigan ma'nolar tahlilida xalqning etnomadaniyatiga man-sub o'ziga xos xususiyatlar alohida e'tiborga olinadi. Har bir paremiya komponentidagi mifologik konsep-tosfera birliklari arxetipik ma'nolarini saqlangan holda voqelantiriladi. Til sohiblari ongida paremilogik birliklarning hamma voqelantiruvchilari har doim ham mifologik konseptosfera birliklari muayyan miflarni voqelantirmasligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Байбурина А.К. Мифологема. Народные знания. Фольклор. Народное искусство. М., 1991, с. 78.

(2). Kdırbaeva G. Numerativ birliklar lingvomadaniy xususiyatlari. Quality of teacher education under modern challenges. 2023, T. 1, №.1, p. 967–969.

(3). Топорков А.Л. Мифологема. Восточнославянский фольклор. Словарь научной и народной терминологии. Минск, 1993, с. 154.

(4). Шафранская Э.Ф. Устное народное творчество. Учеб. пособие, М., “Академия”, 2008.

(5). Юнг К.Г. Архетип и символ. М., “Канон”, 1991, 330 с.

(6). Cognitive Linguistics in Action: from theory to application and back /edited by Elz˙bieta Tabakowska, Michał Choin´ ski, Łukasz Wiraszka. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG. Berlin, 2010, 411 p. (7). https://www.textologia.ru/slovari/literaturovedcheskie-terminy/mifologema/?q=458&n=348

(8). Qaraqalpaq folklori. IV jild, Qaraqalpaq naqıl maqallari, 1978.

(9). https://hallofpeople.com/en/proverbs/a1.php

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna (Andijon davlat Chet tillari instituti katta o‘qituvchisi; lolaxon.saidova@mail.ru)

O‘ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Dunyodagi turli xalqlarda turlicha antroponimik tizim mavjud bo‘lgan. O‘zbek tili, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan, antroponimlarni o‘z ichiga olgan bir qator semantik va uslubiy xususiyatlarni namoyon etadi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi antroponimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *antroponomika, onomastika, nominativ vazifa, ism ma’nosi tushunchasi, ishonch, e’tiqod.*

Саидова Лолахан Махаммаджановна (старший преподаватель Андижанского государственного института иностранных языков; lolaxon.saidova@mail.ru)

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТРОПОНИМОВ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *У разных народов мира существовали разные антропонимические системы. Узбекский язык, обладающий богатым историко-культурным наследием, обладает рядом семантических и стилистических особенностей, в том числе антропонимами. В данной статье изучаются семантические и стилистические особенности антропонимов в узбекском языке.*

Ключевые слова: *антропономика, ономастика, номинативная функция, понятие значения имени, доверие, убеждение.*

Saidova Lolakhan Makhammadjonovna (Senior teacher of the Andijan State Institute of Foreign Languages)

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ANTHROPONYMS IN UZBEK LANGUAGE

Annotation. *Different peoples of the world had different anthroponymic systems. The Uzbek language, which has a rich historical and cultural heritage, has a number of semantic and stylistic features, including anthroponyms. This article studies the semantic and stylistic features of anthroponyms in the Uzbek language.*

Key words: *anthroponomics, onomastics, nominative task, concept of name meaning, trust, belief.*

Kirish. Antroponimlar – insonlarning ismlari, familiyalari, otasining ismi va boshqa shaxsiy nomlarini o‘z ichiga olgan atamalar bo‘lib, ular nafaqat ijtimoiy muhitda, balki tilda ham muhim o‘rin egallaydi.

Antroponim so‘zining leksik ma’nosini aniqlashdan avval, antroponomiya atamasiga alohida e’tibor qaratish kerak. Ma’lumki, ismlarni o‘rganish borasida tilshunoslikda ismshunoslik yoki nomshunoslik sohasi mavjud bo‘lib, u onomastika deb ataladi. Uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan antroponomikada kishilarning ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilar o‘rganiladi. “Antroponim”–“antropos – odam+ onyma–nom, kishining atoqli oti, nom” deb ta’rif beriladi. Antroponomika–yunoncha ‘antros’–shaxs’ va ‘onoma’–ism so‘zidan olingan bo‘lib, leksikologiya (onomastika)ning kishi otlarini (nomlarini) o‘rganuvchi bo‘limidir. Barchaga ayonki, antroponomika nutqda antroponimning vazifasini aniqlab, shaxsning jamiyatga kirishi, boshqa e’tiqodga o‘tishi, yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy ahvolining o‘zgarishi, boshqa millat vakillarining yashash tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni farqlash, ularni aniqlash, ismlarning o‘zgarishi, o‘ziga xosligi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda qo‘llanilishi, foydalanish qoidalari, tuzilishi va rivojlanishi antroponomikaning muhim qismidir [1;10 p.]. Antroponimiya tilda mavjud bo‘lgan barcha kishilar nomlari majmuyidir. Ilgari antroponimiya o‘rnida “onomastika” atamasi ishlatilgan, keyinchalik esa insonning kelib chiqishi, urug‘-aymog‘i, otasi, millati, insoniy fazilatlari tahliliga ko‘ra, qayta nomlagan-